

BUXORO XONLIGIDA MADANIY HAYOT

Do'smuratov Raximjon Baxtiyor o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tarix yo'naliishi 3-kurs talabasi

Tel:+998992351402

Ilmiy rahbar: Saiydusmonov Baxrom

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada biz Buxoro xonligida shayboniyalar va ashtarxoniyalar davridagi madaniyat haqida ma'lumot olamiz. Shayboniylardan avvalgi sulolalar davrida Movarounnahr va Xurosonda yaxshi rivojlangan madaniy an'analar Shayboniyalar davrida ham davom etdi, hamda boyitildi. Bu davrda madaniy hayotning ko'plab yo'naliishlari: adabiyot, tarixnavislik, musiqa, me'morchilik, naqqoshlik kabi sohalarda yutuqlarga erishildi. Buxoro adabiy muxiti Ubaydullaxon va Shayboniyxon boshchiliklarda rivojlandi va gullab yashnadi. Maqolada asosan biz ularning boshchiligidagi Buxoro xonligi adabiy muxiti haqida so'z yuritiladi.

KALIT SO'ZLAR: "Muzakkiri ahbob" (Do'slar yodnomasi), Ubaydullaxon (Ubaydiy), "Zafarnoma", ta'limda isloxtatlar, maktab ta'limi, So'fi Olliyor, Bedil.



АННОТАЦИЯ

В этой статье мы узнаем о культуре Бухарского ханства в эпоху Шайбани и Аштархани. При династиях до Шейбанидов хорошо развитые культурные традиции в Мовароуннахре и Хорасане продолжились и обогатились при Шейбанидах. В этот период были достигнуты успехи во многих областях культурной жизни: литературе, историографии, музыке, архитектуре, живописи. Литературная среда Бухары развивалась и процветала под руководством Убайдуллах-хана и Шайбани-хана. В статье в основном говорится о литературной среде Бухарского ханства под их руководством.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: «Музаккири ахбоб» (Воспоминания друзей), Убайдулла-хан (Убайди), «Зафарнама», реформы в образовании, школьное образование, суфий Оллайор, Бедиль.

ANNOTATION

In this article, we will learn about the culture of the Bukhara Khanate during the Shaibani and Ashtarkhani eras. During the dynasties before the Shaybanids, the well-developed cultural traditions in Mavarounnahr and Khorasan continued and were enriched during the Shaybanids. During this period, achievements were made in many areas of cultural life: literature, historiography, music, architecture, painting. The literary environment of Bukhara developed and flourished under the leadership of Ubaidullah Khan and Shaibani Khan. The article mainly talks about the literary environment of the Bukhara Khanate under their leadership.

KEYWORDS:"Muzakkiri ahbob" (Memoir of Friends), Ubaydullah Khan (Ubaydi), "Zafarnama", reforms in education, school education, Sufi Olliyor, Bedil.

KIRISH

Bu davirda hukumron sulola vakillari adabiyotning rivojlanishiga va gullab yashnashiga juda katta e'tibor qaratgan va o'zlar ham ijodiy muhitiga hissa qo'shishgan. Masalan Shayboniyxon, Ubaydullaxon I, Abdullaxon II, Navro'z Ahmadxon Do'stmuhammad Sultonlarning asarlari va g'azallari bizgacha saqlanib qolgan.Buxoro xoni Shayboniyxonning o'zi ham seriyat va tarix ilmiga qiziqqan, uning o'zi she'riy devonlar tuzganligi malum. Ubaydullaxon ham adabiyotga qiziqqan va u Ubaydiy, Qulubaydiy, Ubaydullo kabi taxaluslarda g'azallar bitgan.Manbalarning ma'lumot berishicha, bu davrda rassomlik, xattotlik, musiqa san'ati, fiqh ilmi, tabobat va ilmi nujum sohalari ko'zga ko'rinarli darajada rivoj topgan. Shayboniylar davrida yoshlarga ta'lim berish soxasida ham ko'plab islohatlar amalga oshirildi. Har bir mahallalarda maktablar ochildi. Yuksak malakali fiqhiy olomlarni tayyorlovchi madrasalarda islohatlar amalga oshirilib ularning faoliyatlari kengaytirildi.

Ashtarkoniylar davrida hasm ilm fan, me'morchilik, adabiyot, san'at, madaniyat taraqqiyoti davom ertdi. Zamonaviy tadqiqotchilar bu davrdagi ilmiy-falsafiy fanlar rivojoi ayniqsa adabiyot, tarixnavislik, falsafiy-huquqiy hamda ijtimoiy-huquqiy yo'nalishlarni yaxshi rivojlanganligi malum. Ashtarkoniylar davrida tarixnavislik faniga katta e'tibor qaratilgan bo'lib, "Bahr al-asror", "Tarixi Muqumxoniy", "Dastur ul muluk", "Ubaydullanoma", Tuxfat ul-xoniy", " Tarixi Abulfayizzoniy" kabi qimmatli asarlar yaratildi. Ashtarkoniylar davrida o'gil bolalar masjid, madrasa qorixonalar qoshidagi yoxud xususiy maktablarda taxi olishgan. Ularga masjid imomi, mulla, o'qimishli boshqa shaxs ham o'qituvchi sifatida saboq berishgan.



Qizlar xonadonlarda ayol o'qituvchilar (otinoyi, bibiotin, otinbibi, bibixalifa) tomonidan o'qitilgan¹.

ILMIY TADQIQOT USULLARI

Ushbu maqolada B.J.Eshev, A.A.Odilov "O'zbekiston tarixi" II kitobida Shayboniyalar va Ashtarxoniyalar madaniy hayoti yetarlicha yoritib berilgan. Ushbu kitobda asrlar davomida saqlanib kelayotgan ma'daniyatiga xissa qo'shgan ziyorilar Hasanxon Nasriy, Shaybonixon, Ubaydullaxon I, Binoiy, Said Shamsiddin Abdulloh, Nurmuhammad Nasafiy, Mulla Sodiq Samarqandiy asarlarini o'rganib Buxoro xonligidagi madaniy hayotni tadqiq qilib yangi va qiziqarli ma'lumotlarni topdim.

Yana shu davrni Buxoro xonligining adabiy muhitini yoritib bergan Mirzohir Rahimov, Akbar Zamonovlarning qalamiga mansub "O'zbekiston tarixi" kitobini keltirib o'tish o'rnlidir. Ularnig ilmiy izlanishlari natijasida Buxoro xonligini adabiy muhitining rivojlanishiga xissa qo'shgan adiblarimizning hayoti va ijodi maxsullariga yanada aniqroq to'xtalib o'tishda. Madrasalarda iloxiyotdan tashqari rioziyat, faroiz, handasa, fiqh, she'r san'ati, mantiq,musiqqa, xattotlik va boshqa fanlar o'qitildi². Maqolada izlanishlar orqali Buxoro xonligini madaniyatini yanada ochiqroq yoritishga harakat qildim. Asosan izlanishlarin ta'lim soxasiga qiziqish va uning rivojlanishi davri diqqat markazimda bo'ldi.

Buxoro xonligining madaniyati va adabiy muhitiga xissa qo'shgan 228 ta shoirlar ijodiy namunalarini o'zida jamlagan adabiyotshunos olim va shoir Hasanxo'ja Nisoroiyning "Muzakkiri axbob" (Do'stlar yodnomasi) kitobini alohoida bir tadqiqot markazi qilib ko'rsatishimiz mumkin. Abdullaxon II ga atab yozilga bu asar nafaqat O'rta Osoiyoni baliki Eron va Hindistonning adabiy muhiti haqida ma'lumot beruvchi qimmatli manba xisoblanadi³.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUXOKAMASI

Buxoro adabiy muhiti haqida so'z yuritilganda bu davr adabiyotida Muhammed Shaybonixon, uning jiyani Ubaydullaxon, Kamoliddin Binoiy, Muhammad Solih va boshqalar alohida o'rinn tutgan.

¹ B.J.Eshov, A.A.Odilov – "O'ZBEKISTON TARIXI" II kitob. "DONISHMAND ZIYOSI". Toshkent 2020. 234-bet

² Mirzohid Rahimov, Akbar Zamonov – "O'zbekiston tarixi" "Fan" nashriyoti. Toshkent 2019. 241-bet

³ A.Sagdullayev, B.Aminov, U.Mavlonov, N.Norqulov – "O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqiyoti". "Akademiya" Toshkrnt 2000. 167-bet



Umrining katta qismini jang-u jadallarda o'tkazgan Muhammad Shaybonixon, ayni paytda, she'riyat ilmi bilan ham shug'ullanadi. Shaybonixon yoshligida ta'limni Buxoro madrasasida olib ilm-fan, she'riyatga mehr qo'ygan. Shaybonixon davr talabiga binoan turkey til bilan birgalikda fors tilini han yaxshi egallab, she'riyatga qiziqib o'z she'rlarini yozgan. Shaybonixonning yagona she'rlar to'plami bo'lган "Devon" i esa Turkiyaning Istanbul shaxridagi To'pqopи Saroyi kutubxonasida saqlanmoqda. Bu asar haqida bizga birinchi ma'lumotni tarixchi olim Zaki Validiy To'g'on 1927-yil 'Yangi Turkiston" jurnalining 1-sonida chiqqan "Shayboniyxonning she'rlari" nomli maqolasida bergan. Zaki Validiy To'g'onning bergan ma'lumotlariga ko'ra Shayboniyxon Shohbaxt, Shayboq, Shaybek, Sheboniy, Shohibek taxaluslarida ijod qilgan devoni 191 varoqdan iborat ekankigini aytib o'tadi.

Shayboniyxon dan so'ng kuchli va tartibli davlatga asos solgan Ubaydullaxon davrida ham ilm-fan va madaniyat soxalarida o'sish kuzatiladi. Ubaydullaxon yassaviya va naqshbandiya tariqatlariga amal qilib, shayx sifatida bir qator muridlarni yetishtirib chiqaradi. Ubaydullaxon "Ubaydiy", "Ubaydulloh", 'Qu'l Ubaydi" kabi taxalluslar bilan arab, fors, o'zbek tillarida ijod qilib asarlar yozgan. Ubaydullaxon A.Yassaviy asos solgan hikmatnavislik an'anasi rivojlantirgan va undan bizgacha 1786 baytdan iborat 220 dan ortiq hikmat yetib kelgan. Ubaydullaxon o'zbek va fors tillarida yirik ruboyilar yaratgan bo'lib, uning bu ikki tildagi ruboyilarining soni 850 ga yaqindir⁴. Ubaydullaxonning yozgan ruboyilari o'zbek adabiyotida Bobur dan keyingi o'rinda turadi desak adashmagan bo'lamiz.

Bu davrda adabiyot sohasining eng muhim yutug'i sifatida Matrubiyning "Tazkirat ush-shuarо" nomli asarini aytishimiz mumkin. 1605-yilda yozilgan bu asarda XVI asr ikkinchi yarimi – XVII asr boshlarida O'rta Osiyo va Ozarbayjonda yashab o'tgan 320 nafarda ortiq shoirning hayoti va yozgan asarlari haqida ma'lumot beriladi.

Maktab ta'limi. XVII – XVIII asrlarda Buxoro xonligida ta'lim tizimi o'ziga xos tarzda bo'lган. Bu davrda shaxar va qishloqlarda ko'plab maktablar mavjud bo'lган. Bolalar 5-7 yoshdan mакtabga borishgan. Maktab xarajatlari domlalarning maoshi vaqf mulkiga tushgan pullar va ota-onalar tomonidan berilgan haq evaziga qoplangan. Yetim bollalar bepulga o'qitilagan. Maktablarda o'qish 5-8 yil davom etgan. Maktabda "Haftiyak" (Qur'oni karimning yettidan biri), hisob-kitob, Navoiy, Fuzuliy, Bedil, Mashrab, Sheroziy, So'fi Ollayorning asarlari, "Chor kitob" va boshqalardan dars berilgan. Qizlar esa o'qish bilan birga odob-axloq,

⁴ Mirzohid Rahimov, Akbar Zamonov – "O'zbekiston tarixi" "Fan" nashriyoti. Toshkent 2019. 238-239-betlar

pazandachilik, uy-ro'zg'ordan han dars berilgan. Maktablarni bitrgan iqtidorli o'g'il bolalar madrasalarda o'qishni davom etirishgan. Madrasalarda o'qish esa 7-12 yildavom etgan. Bu davrda Buxoro xonligida 150 dan ortiq madrasalar faoliyat ko'rsatgan. O'qishda arab va fors tilidagi kitoblar o'qitilgan. Birinchi "Avvali ilm" o'quv qo'llanmasi, keyin esa arab tili gramatikasi o'qitilgan. Madrasalarda fiqh, falakiyot, handasa, tibbiyot, kimyo, tarix, jug'rofiya, adabiyot, aruz ilmi, xattotlik, notiqlik, hadis ilmi, jami bo'lib 137 darslar va qo'llanmalar o'zlashtirilishi kerak bo'lgan⁵.

XULOSA

Ilmiy tadqiqotim natijasida Buxoro xonligida adabi mihitiga nafaqat mahalliy shoir va adiblar, balki Shayboniyxon, Ubaydullaxon kabi xonlarning ham o'rni katta bo'lganligi menda chuqur qiziqish uyg'otdi. Tadqiqotim natijasida shu mengamin bo'ldiki, shayboniylar va ashtarxoniyalar davrida adabiy muhit yetarlicha rivojlangan.

Buxoro xonligida ta'lim va tarbiya sohasidagi isloxbatlar natijasida ziyyolilar safi kengaygan. Maktab ta'limi ham bir tizimga solinganligi e'tiborli jihatidir. Bundan ko'rinish turibdiki Buxoro xonligida maktab ta'limiga ham alohida bir e'tibor berilgan. Madrasa ta'limiga keladigan bo'lsak tolibi ilmlarga nafaqat diniy, balki dunyoviy, astronomik, matematik, gimnastik va tibbiy bilimlar berolganligi men uchun yangilik bo'di.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. B.J.Eshov, A.A.Odilov – "O'ZBEKISTON TARIXI" II kitob. "DONISHMAND ZIYOSI". Toshkent 2020
2. Mirzohid Rahimov, Akbar Zamonov – "O'zbekiston tarixi" "Fan" nashriyoti. Toshkent 2019
3. A.Sagdullayev, B.Aminov, U.Mavlonov, N.Norqulov – "O'zbekiston tarixi: davlat va jamiat taraqiyoti". "Akademiya" Toshkrnt 2000
4. Hasanxo'ja Nisoroiyning "Muzakkiri axbob" (Do'stlar yodnomasi) kitobi
5. R.Xoliqukov, K.G'aniyev, M.Nasrullayev – "O'zbekiston tarixi". Samarqand- 2019
6. WWW.ZIYOUZ.COM Kutubxonasi

⁵ B.J.Eshov, A.A.Odilov – "O'ZBEKISTON TARIXI" II kitob. "DONISHMAND ZIYOSI". Toshkent 2020. 234-235-betlar

